

RAQAMLI IQTISODIYOT – YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI DAVRI

Hotamboyeva Sevinch Valijonovna

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,

Maxsus fakultet 303 - o‘quv guruhi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14330801>

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning kelib chiqishi, zamonaviy taraqqiyotda tutgan o‘rni, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar, uning raqamli iqtisodiyot sohasidagi holatini belgilovchi omillar, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan siyosatni amalga oshirishdagi kamchiliklar va yutuqlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, raqobat, tarmoqli intellekt, innovatsiya, sun‘iy intellekt, neyrotexnologiyalar, kvant texnologiyalari, buyumlar interneti, robototexnika, yalpi ichki mahsulot, drayver, raqamli infratuzilma, startaplar va innovatsiyalar.

ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА- НОВАЯ ЭРА РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В данной статье представлены зарождение цифровой экономики, ее роль в современном развитии, реформы цифровой экономики в нашей стране, факторы, определяющие ее статус в сфере цифровой экономики, недостатки и достижения в реализации политики, направленной в развитии цифровой экономики.

Ключевые слова: цифровая экономика, конкуренция, сетевой интеллект, инновации, искусственный интеллект, нейротехнологии, квантовые технологии, интернет вещей, робототехника, валовой внутренний продукт, драйвер, цифровая инфраструктура, стартапы и инновации.

THE DIGITAL ECONOMY IS A NEW ERA OF THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN

Abstract. This article presents the origin of the digital economy, its role in modern development, reforms in the digital economy in our country, the factors determining its status in the field of the digital economy, shortcomings and achievements in the implementation of the policy aimed at the development of the digital economy.

Keywords: digital economy, competition, network intelligence, innovation, artificial intelligence, neurotechnologies, quantum technologies, internet of things, robotics, gross domestic product, driver, digital infrastructure, startups and innovations.

KIRISH

Iqtisodiy va texnologik taraqqiyotning yangi bosqichi sifatida namoyon bo'layotgan raqamli inqilob insoniyat hayotini shiddat bilan o'zgartirib, keng imkoniyatlar yaratish bilan birga, xalqaro raqobat maydonining yanada keskinlashuv davrini boshlab berdi.

“Raqamli iqtisodiyot” atamasi birinchi bo'lib 1995-yilda Don Tepkott muallifligida chop etilgan “Raqamli iqtisodiyot: tarmoqli intellekt asrida va'da va xavf-xatar” (The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence) nashrida alohida tushuncha sifatida istiloh etilgan¹. Ushbu nashrda raqamli iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlariga fundamental innovatsiyalar (yarimo'tkazgichlar, protsessorlar), asosiy texnologiyalar (kompyuterlar) va bog'lovchi infratuzilmalar (internet va telekommunikatsiya tarmoqlari) ajratib ko'rsatiladi.

Raqamli iqtisodiyot ikki xil turli tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi². Birinchidan, raqamli iqtisodiyot – bu rivojlanishning zamonaviy bosqichi hisoblanib, u ijodiy mehnat va axborot ne'matlarining ustuvor o'rnini bilan tavsiflanadi. Ikkinchidan, raqamli iqtisodiyot – bu o'ziga xos tushuncha bo'lib, uning o'rganish ob'ekti axborotlashgan jamiyat hisoblanadi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan global iqtisodiyot sharoitida raqamli iqtisodiyot o'z rivojlanishining boshlang'ich davrida bo'lib, zamonamizning raqamli axborot bosqichiga o'tishi atiga bir necha o'n yilni tashkil etadi.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot – bu jarayonlarni tahlil qilish natijalaridan foydalanish va katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash asosida turli xildagi ishlab chiqarishlar, texnologiyalar, asbob-uskunalar, tovar va xizmatlarni saqlash, sotish va yetkazib berish samaradorligini jiddiy ravishda oshirishga imkon beradigan, raqamli ko'rinishdagi ma'lumotlar asosiy ishlab chiqarish omili hisoblangan faoliyatdir. Zamonaviy taraqqiyotning keyingi istiqbolida katta hajmli ma'lumotlar bilan ishlash texnologiyalari (Big Data), sun'iy intellekt, neyrotexnologiyalar, kvant texnologiyalari, buyumlar interneti, robototexnika va sensorika, raqamli elektron platformalar, bulutli va mobil texnologiyalar, virtual va qo'shimcha reallik texnologiyalari, kraudsorsing, blokcheyn texnologiyalari, kriptovalyutalar va ICO, 3D-texnologiyalari singari raqamli texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Raqamli iqtisodiyot hozirgi mavjud sohalarning yarmidan ko'prog'ida beqiyos o'zgarishlar keltirib chiqarishi ta'kidlanmoqda. Jumladan, Jahon banki ekspertlari fikricha, tezkor internetdan foydalanuvchilar sonining 10 foizga ko'payishi milliy iqtisodiyotlar yalpi hajmini har yili o'rtacha 0,4-1,4 foizga oshirish imkonini beradi.

¹ TDIU<https://journal.tsue.uz/viewPDF257>

² <https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/download/14267/9932/11207>

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 13-fevral kuni axborot texnologiyalarini rivojlantirishga bag'ishlangan tadbirda keltirgan statistik ma'lumotlariga muvofiq AQShda raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 10,9 foiz, Xitoyda 10 foiz, Hindistonda 5,5 foizni tashkil etadi. O'zbekistonda bu ko'rsatkich 2 foizdan ham oshmaydi³.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining 25-maqsadida **Raqamli iqtisodiyotni asosiy «drayver» sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish**⁴ belgilab o'tilgan. Raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish orqali barcha aholi maskanlarini va ijtimoiy ob'ektlarni hamda magistral avtomobil yo'llarini keng polosali ulanish tarmoqlari bilan qamrab olish, iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 2026 - yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish, dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmini 5 baravar, ularning eksportini esa 10 baravar oshirib, 500 million AQSh dollariga yetkazish belgilangan.

Belgilangan maqsadlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasida katta qadamlar tashlanmoqda. So'nggi yillarda davlat tomonidan raqamli infratuzilma va texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Quyidagi omillar O'zbekistonning raqamli iqtisodiyot sohasidagi holatini belgilaydi:

1. Raqamli infratuzilma: O'zbekistonning internet tarmog'i va mobil aloqasi tez sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Mobil internet kengayishi va internetga ulanish imkoniyatlarining oshishi raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga turtki bermoqda;

2. Raqamli davlat xizmatlari: Hukumat tomonidan "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali" (my.gov.uz) va boshqa raqamli platformalar orqali davlat xizmatlari raqamlashtirilmoqda.

Bu, fuqarolarga ko'proq qulaylik yaratadi va xizmatlarni tezroq olish imkoniyatini taqdim etadi;

3. Startaplar va innovatsiyalar: O'zbekistonning yosh startaplar va texnologik innovatsiyalar bo'yicha ekotizimi kuchaymoqda. Yangi texnologiyalarni joriy etish va ularni turli sohalarda qo'llash ko'paymoqda;

4. Raqamli moliya va to'lov tizimlari: Mobil to'lovlar va raqamli moliya xizmatlari keng tarqalmoqda. "Payme", "Click" kabi tizimlar xalqaro va mahalliy to'lovlarni amalga oshirishda keng qo'llanilmoqda;

³ https://www.facebook.com/story.php?story_fbid=1234766700042220&id=100064427992540

⁴ <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

5. Yuqori texnologiyalarni rivojlantirish: AI (sun'iy intellekt), blokcheyn texnologiyalari, IoT (Internet of Things) kabi yangi texnologiyalarni rivojlantirish uchun investitsiyalar jalb qilinmoqda.

Takliflar:

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish mamlakatimizda iqtisodiy o'sishni ta'minlash, innovatsiyalarni joriy etish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Quyida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga oid bir nechta takliflarimni keltiraman:

1. Raqamli infratuzilmani mustahkamlash. Internet tarmog'ini kengaytirish va tezligini oshirish: Hamma hududlarda, xususan, qishloq joylarida yuqori tezlikda internet xizmatlarini ta'minlash. Bu innovatsion xizmatlar va raqamli texnologiyalarni kengroq joriy etish imkonini yaratadi;

2. Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish. Raqamli texnologiyalar bo'yicha ta'lim tizimini takomillashtirish: O'quv dasturlarini raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, ma'lumotlarni tahlil qilish kabi sohalar bilan to'ldirish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash. Xodimlar uchun doimiy malaka oshirish dasturlarini joriy etish: Korxonalar va davlat idoralari uchun raqamli ko'nikmalarni oshirish maqsadida muntazam treninglar va kurslar tashkil qilish;

3. Raqamli innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash. Startaplar va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash: Startaplar uchun subsidiyalar, grantlar, soliq imtiyozlarini taqdim etish, innovatsion mahsulotlar va xizmatlarning rivojlanishiga ko'maklashish;

4. Xizmatlarni raqamlashtirish: Davlat xizmatlari, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa sohalarda raqamli platformalar yaratish va ularni kengaytirish. Masalan, onlayn sog'liqni saqlash xizmatlari, ta'lim resurslari va davlat idoralari bilan raqamli aloqalar;

5. Bugungi kunda ijtimoiy hayotimizga kirib kelgan raqamli texnologiyalardan foydalanishda moddiy hayotni vertuallashuvini oldini olishga qaratilgan madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish lozim.

Shu bilan birga, O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotdagi rivoji ba'zi muammolar bilan ham yuzlashmoqda, jumladan, yuqori malakali kadrlar yetishmasligi, tarmoq xavfsizligi va raqamli bo'linish masalalari. Umuman olganda, O'zbekiston raqamli iqtisodiyotda sezilarli o'sishni kuzatmoqda, ammo yanada ko'proq infratuzilma va ta'limga e'tibor qaratish zarur.

Xulosa:

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, iqtisodiy o'sish, innovatsiyalarni joriy etish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishda katta ahamiyatga ega.

Raqamli infratuzilma, startaplarni qo'llab-quvvatlash, kadrlar tayyorlash, kiberxavfsizlik va qonunchilikni takomillashtirish kabi yo'nalishlarda amalga oshiriladigan ishlar, mamlakatimizni raqamli iqtisodiyot sohasida jahonning eng ilg'or mamlakatlari qatoriga olib chiqishi mumkin.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T.: Adolat-2023 y
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Tarqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
3. TDIU[https://journal.tsue.uz › viewPDF257](https://journal.tsue.uz/viewPDF257)
4. <https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/download/14267/9932/11207>
5. https://www.facebook.com/story.php?story_fbid=1234766700042220&id=100064427992540
6. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>